



## TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA KORXONALARINI KREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

## WAYS TO IMPROVE LENDING TO COMMUNICATION ENTERPRISES BY COMMERCIAL BANKS

<sup>1</sup>*Shaymatov Mansur  
Jo‘rabayevich*

<sup>1</sup>*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.  
G-mail: [m.shaymatov@gmail.com](mailto:m.shaymatov@gmail.com)*

### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan aloqa (telekommunikatsiya) korxonalarini kreditlash jarayonini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida aloqa sektorining moliyalashtirish ehtiyojlari, bank kreditlari tarkibi hamda kredit risklari tahlil qilindi. Natijada aloqa korxonalariga kredit ajratishda foiz stavkalarini optimallashtirish, kredit risklarini integratsiyalashgan model asosida baholash, bank aktivlar portfelida telekommunikatsiya kreditlarining optimal ulushini aniqlash hamda kredit samaradorligini baholashning integrallashgan ko‘rsatkich tizimi ishlab chiqildi.

*Eng.* - This article analyzes the issues of improving the mechanisms of lending by commercial banks to communication (telecommunication) enterprises. During the research, the financing needs of the telecommunications sector, the structure of bank loans, and the risks associated with lending activities were examined. As a result, several scientific proposals were developed, including the optimization of interest rates when providing loans to telecommunications enterprises, the assessment of credit risks based on an integrated model, the determination of the optimal share of telecommunications loans in the asset portfolio of commercial banks, and the development of an integrated indicator system for evaluating credit efficiency.

### Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, telekommunikatsiya sektori, kreditlash, kredit riski, bank aktivlari, kredit samaradorligi.*  
❖ *commercial banks, telecommunications sector, lending, credit risk, bank assets, credit efficiency.*

### Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli xizmatlar, mobil aloqa, internet tarmoqlari, ma‘lumotlar markazlari va keng polosali aloqa infratuzilmasining rivojlanishi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va moliya sohalarining

samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli aloqa korxonalarini moliyalashtirish, xususan ularni tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida raqamli infratuzilmaga talab yildan-yilga ortib bormoqda. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyo aholisining 67 foizi

internetdan foydalangan, bu esa taxminan 5,4 milliard kishini tashkil etgan [1]. Shuningdek, raqamli xizmatlar va telekommunikatsiya infratuzilmasining kengayishi tarmoq korxonalaridan katta hajmdagi kapital qo'yilmalarni talab qilmoqda. 5G texnologiyalari, optik tolali internet tarmoqlari, bulutli xizmatlar va ma'lumotlar markazlarining rivojlanishi telekommunikatsiya korxonalarining uzoq muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham axborot va aloqa sohasi jadal rivojlanmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda axborot va aloqa xizmatlari hajmi 36,7 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 71,4 trln. so'mga yetgan [2]. Bu esa qisqa davr ichida tarmoq hajmining qariyb ikki barobar oshganini ko'rsatadi. Mamlakatda internet foydalanuvchilari sonining ortishi, raqamli xizmatlarga talabning kengayishi va iqtisodiyot tarmoqlarida AKTdan foydalanish darajasining oshishi aloqa korxonalarining investitsion ehtiyojlarini yanada kuchaytirmoqda.

Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida keng polosali internet qamrovini oshirish, raqamli xizmatlar ulushini kengaytirish, hududlarda telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifalari belgilangan [3]. Ushbu vazifalarni bajarish esa aloqa korxonalarining moliyaviy salohiyatini oshirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va bank kreditlaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Aloqa korxonalarini kreditlash boshqa tarmoqlarni kreditlashdan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, telekommunikatsiya loyihalarini yuqori kapital

talab qiladi. Ikkinchidan, texnologiyalar tez yangilanishi sababli loyiha risklari nisbatan yuqori bo'ladi. Uchinchidan, tarif siyosati, litsenziyalash, regulativ talablar va bozor raqobati kredit qaytishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillar hisoblanadi. To'rtinchidan, aloqa korxonalarini tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari ko'pincha uzoq muddatli bo'lib, banklar uchun kredit muddati, foiz daromadi va risklarni boshqarish masalalarini dolzarblashtiradi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari tomonidan aloqa korxonalarini kreditlash jarayonida kredit foiz stavkalarini optimallashtirish, korporativ mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish, kredit risklarini texnologik, tariflik, investitsion va regulativ risklar asosida baholash, bank aktivlari portfelida telekommunikatsiya kreditlarining optimal ulushini belgilash hamda kredit samaradorligini kompleks indekslar orqali aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud sharoitda aloqa korxonalarining bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat ushbu tarmoq rivojiga, balki raqamli iqtisodiyot infratuzilmasining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli tijorat banklari tomonidan aloqa korxonalarini kreditlashni takomillashtirish, kredit portfelini tarmoqlar kesimida diversifikatsiya qilish va kredit samaradorligini kompleks baholash mexanizmlarini ishlab chiqish tadqiqotning dolzarb yo'nalishi hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini, xususan telekommunikatsiya tarmog'i korxonalarini kreditlash masalalari bank kredit siyosati, kredit risklarini boshqarish hamda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli ushbu masala iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, unda bank kreditlari orqali real sektorni moliyalashtirish, kredit

risklarini baholash va kredit portfelini diversifikatsiya qilish masalalari alohida e'tiborga olinadi.

Xorijiy iqtisodchi olim F. Mishkin bank kreditlari real sektor investitsiyalarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bank tizimi orqali jalb qilingan moliyaviy resurslar korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi [4]. Telekommunikatsiya tarmog'i kabi kapital talab qiladigan sohalarda bank kreditlari investitsiya jarayonining muhim manbasi hisoblanadi.

Shuningdek, P. Rose va S. Hudgins tijorat banklari kredit portfelining samaradorligi kredit risklarini to'g'ri baholash hamda kredit portfelini tarmoqlar kesimida diversifikatsiya qilish bilan bog'liqligini qayd etadi. Ularning fikriga ko'ra, bank kreditlash siyosatini ishlab chiqishda qarzdor faoliyat yuritayotgan tarmoqning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olish zarur [5]. Bu yondashuv telekommunikatsiya korxonalarini kreditlash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliya bozorlarini tadqiq etgan iqtisodchi olim F. Fabozzi kredit risklarini baholashda kompleks yondashuvdan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kredit qarorlarini qabul qilish jarayonida moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda texnologik omillar, bozor sharoitlari va tarmoq rivojlanish tendensiyalari ham inobatga olinishi zarur [6]. Bu ayniqsa telekommunikatsiya sohasida muhim hisoblanadi, chunki ushbu tarmoq texnologik jihatdan tez rivojlanadigan sohalardan biridir.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham bank kreditlari va kredit risklarini boshqarish masalalari keng yoritilgan. Xususan, O.I. Lavrushin tijorat banklari kredit portfelini shakllantirishda kredit risklarini baholash hamda tarmoqlar kesimida diversifikatsiyani ta'minlash bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilishini

ta'kidlaydi [7]. Uning fikriga ko'ra, kredit portfelini samarali boshqarish bank daromadligini oshirish bilan birga kredit risklarini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Abdullayeva Sh.Z. o'z tadqiqotlarida bank kreditlari bilan bog'liq risklarni boshqarish masalalarini chuqur tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, kredit risklari bank faoliyatida eng muhim risk turlaridan biri bo'lib, ular kredit portfelining sifati, qarzdorlarning moliyaviy holati hamda iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli kreditlash jarayonida risklarni baholashning kompleks tizimini joriy etish bank kredit portfelining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi [8].

Shuningdek, R. Alimov va A. Vahobov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank kreditlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va investitsiya faoliyatini kengaytirishda muhim moliyaviy manba ekanligi qayd etiladi. Ularning fikriga ko'ra, bank kreditlari orqali real sektor korxonalarining investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga xizmat qiladi [9].

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, telekommunikatsiya korxonalarini kreditlash jarayonida kredit foiz stavkalarini optimallashtirish, kredit risklarini kompleks baholash, bank aktivlari portfelida telekommunikatsiya kreditlarining optimal ulushini aniqlash hamda kredit samaradorligini integrallashgan ko'rsatkichlar asosida baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu jihatdan mazkur tadqiqot telekommunikatsiya korxonalarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida aloqa korxonalarini kreditlash mexanizmlarini tahlil qilish maqsadida iqtisodiy-statistik tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kredit risklarini modellashtirish hamda ekonometrik baholash

usullaridan foydalanildi. Iqtisodiy-statistik tahlil orqali kreditlar hajmi va ularning bank faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Tizimli va qiyosiy yondashuvlar yordamida kreditlash jarayonining o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Kredit risklarini modellashtirish va ekonometrik baholash usullari esa kredit samaradorligi hamda risk omillarini aniqlashda qo'llanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari tomonidan aloqa (telekommunikatsiya) korxonalarini kreditlash jarayonini takomillashtirish masalalarini o'rganish natijasida kredit foiz stavkalarini optimallashtirish, kredit risklarini tizimli baholash, bank aktivlari portfelida telekommunikatsiya kreditlarining optimal ulushini aniqlash hamda kredit samaradorligini kompleks baholash

mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati aniqlandi. Telekommunikatsiya korxonalarini banklar uchun muhim korporativ mijozlar hisoblanadi. Ushbu korxonalar raqamli infratuzilmani rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda keng polosali internet tarmoqlarini kengaytirish kabi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishi sababli katta hajmdagi kredit resurslariga ehtiyoj sezadi. Shu sababli banklar tomonidan ushbu mijozlarga nisbatan kreditlash shartlarini moslashtirish orqali uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish mumkin. Kredit foiz stavkalarini optimallashtirish bank kredit portfelining kengayishiga hamda bank daromadligining oshishiga xizmat qilishi mumkin. Ushbu jarayonni baholash maqsadida kredit foiz stavkasini pasaytirishning bank daromadiga ta'siri hisoblab chiqildi.

### 1-jadval

#### Kredit foiz stavkasini optimallashtirish samarasi\*

Ko'rsatkich	Oddiy kredit	Korporativ kredit
Kredit foizi	18 foiz	17 foiz
Kredit portfeli hajmi	100 mlrd. so'm	130 mlrd. so'm
Bank daromadi	18 mlrd. so'm	21 mlrd. so'm

\*<https://aloqabank.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari natijasi.

Yuqoridagi 1-jadval hisob-kitoblariga ko'ra, kredit foiz stavkasini 1 foizga kamaytirish kredit portfeli hajmining 30 foizga oshishiga olib kelishi mumkin. Natijada bank daromadi 18 mlrd. so'mdan 21 mlrd. so'mga yetadi. Bu esa tijorat banklari tomonidan aloqa korxonalarini xisob raqamida korporativ mijoz maqomiga erishganda ularga ajratiladigan kredit foizini 1 foizga tushirish orqali bank daromadini 3 foizgacha oshirish imkoniyati berishini ko'rsatadi. Demak, banklar tomonidan korporativ mijozlarga nisbatan moslashuvchan kredit siyosatini qo'llash kredit portfelini kengaytirish hamda bank rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Telekommunikatsiya sektorini kreditlash jarayonida banklar murakkab va ko'p qatlamli risk muhitiga duch keladi. Bu soha yuqori

texnologiyalarga asoslangani sababli risklar oddiy moliyaviy tavakkalchilikdan ancha kengroq va dinamik xarakterga ega. Avvalo, texnologik risk alohida e'tiborni talab qiladi. Telekommunikatsiya infratuzilmasi juda tez eskiradi: yangi avlod tarmoqlari (masalan, 5G va undan keyingi texnologiyalar) qisqa vaqt ichida eski tizimlarni iqtisodiy jihatdan samarasiz holga keltirishi mumkin. Bu esa kreditlangan loyihalarning kutilgan daromadligini pasaytiradi va aktivlarning qiymatini tez yo'qotishiga olib keladi. Ikkinchi muhim omil – tarif siyosati riski. Telekom xizmatlari ko'pincha davlat tomonidan tartibga solinadi yoki bozor raqobati ta'sirida keskin o'zgaradi. Tariflarning pasayishi yoki kutilmagan tartibga solish qarorlari operatorlarning pul oqimiga bevosita ta'sir

ko'rsatadi. Natijada, kreditlarni qaytarish qobiliyati zaiflashishi mumkin. Shuningdek, investitsion risk ham dolzarb hisoblanadi. Telekom loyihalari, ayniqsa infratuzilma (optik tolali tarmoqlar, baza stansiyalar) katta boshlang'ich sarmoya talab qiladi va ularning

qoplanish muddati uzoq davom etadi. Bu davr ichida bozor sharoitlari, texnologiyalar va iste'molchilar talabi o'zgarib ketishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli banklar uzoq muddatli noaniqlik bilan yuzlashadi.

2-jadval


**Aloqa korxonalarini kreditlashdagi risklar tasnifi\***

Risk turi	Mazmuni
Texnologik risk	texnologiyalarning tez yangilanishi
Tarif risk	xizmatlar tarifining o'zgarishi
Investitsion risk	investitsiya loyihalarining uzoq muddatli qoplanishi
Regulyativ risk	davlat tomonidan tartibga solish va litsenziyalash

\*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur risklarni kompleks baholash maqsadida aloqa korxonalarini kreditlash jarayonida bank kredit risklari tuzilmasidan kelib chiqib uch guruhga texnologik, tariflik,

investitsion va regulyativ risklarga ajratish asosida "integratsiyalashgan kredit risk profili IKRP" modeli ishlab chiqildi.



1-rasm. Integratsiyalashgan kredit risk profili (IKRP) modeli<sup>1</sup>

Mazkur model kredit risklarini alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi. Bu esa kredit qarorlarining asoslanganligini oshirish hamda bank kredit portfelining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari kredit portfelini shakllantirishda tarmoqlar kesimida

diversifikatsiyani ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bank aktivlari portfelida muayyan tarmoqqa ajratilgan kreditlar ulushining haddan tashqari yuqori bo'lishi kredit risklarining ortishiga olib kelishi mumkin.

<sup>1</sup>Tadqiqot natijalari doirasida muallif ishlanmasi.

3-jadval

**Telekommunikatsiya kreditlarining optimal ulushi\***

Ko'rsatkich	Qiymat
Minimal ulush	3 %
Optimal ulush	5 %
Maksimal ulush	8 %

\*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, bank aktivlar portfelida telekommunikatsiya kreditlarining optimal ulushi "telekom-aktivlar ulushi" ko'rsatkichi (TAR-Telecom Asset Ratio) orqali tarmoqlararo chegarasi 3-8 foizgacha bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Minimal ulush bank aktivlari portfelida ushbu tarmoq kreditlarining mavjudligini ta'minlasa, optimal ulush kredit portfelining muvozanatli tarkibini shakllantirishga xizmat qiladi. Maksimal ulush

esa bank kredit risklarini cheklash imkonini beradi.

Telekommunikatsiya sektoriga ajratilgan kreditlarning samaradorligini baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslanish yetarli emas. Ushbu sektorning texnologik xususiyatlari sababli kredit samaradorligini baholashda iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarur.

4-jadval

**Integrallashgan kredit samaradorligi indeksi (CEI)**

Nº	Ko'rsatkich	Mazmuni
1	Rentabellik	kredit daromadliligi
2	Risklik	kredit xavfi
3	Muddatlilik	kredit qaytish muddati
4	Texnologik natija	texnologik modernizatsiya
5	Ijtimoiy ta'sir	bandlik va xizmatlar rivoji

\*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur model banklarining aloqa korxonalariga ajratgan kreditlari samaradorligini 5 unsurli Integrallashgan kredit samaradorligi indeksi (CEI) rentabellik, risklik, muddatlilik, texnologik natija va ijtimoiy ta'sirini aniqlash usuli hisoblanadi va bu kredit samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Natijada banklar kredit qarorlarini qabul qilishda kreditning iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda uning texnologik va ijtimoiy ta'sirini ham hisobga olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, telekommunikatsiya sektorini kreditlash bank kredit portfelining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Telekommunikatsiya

infratuzilmasining rivojlanishi raqamli iqtisodiyotning kengayishiga xizmat qilgani sababli ushbu tarmoqni moliyalashtirish banklar uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Kredit foiz stavkalarini optimallashtirish korporativ mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kredit stavkalarining moslashuvchan belgilanishi kredit portfeli hajmini oshirish bilan birga bank daromadliligini ham oshirish imkonini beradi.

IKRP modeli kredit risklarini tizimli baholash orqali bank kredit qarorlarining asoslanganligini oshiradi. Ushbu model kredit risklarini texnologik, tariflik, investitsion va reguliyativ omillar kesimida baholash imkonini beradi.

TAR ko'rsatkichi esa bank aktivlari portfelining optimal diversifikatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur ko'rsatkich bank kredit portfelida telekommunikatsiya kreditlarining optimal ulushini aniqlash orqali kredit risklarini muvozanatlash imkonini beradi.

CEI modeli kredit samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda texnologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish imkonini beradi. Bu esa

telekommunikatsiya sektorini kreditlash jarayonida kreditlarning real iqtisodiy samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tijorat banklari tomonidan aloqa korxonalarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bank kredit portfelining barqarorligini oshirish hamda telekommunikatsiya sektorining investitsiya faoliyatini kengaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *International Telecommunication Union. Measuring Digital Development: Facts and Figures 2023.* – Geneva: ITU, 2023.
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Axborot va aloqa xizmatlari statistikasi.* – Toshkent, 2024.
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.* – Toshkent, 2020.
4. *Мишкин Ф. Экономика денег, банковского дела и финансовых рынков.* – М.: Вильямс, 2018.
5. *Rose P., Hudgins S. Bank Management and Financial Services.* – New York: McGraw-Hill, 2013.
6. *Fabozzi F. Bond Markets: Analysis and Strategies.* – Boston: Pearson Education, 2016.
7. *Лаврушин О.И. Банковское дело.* – М.: КНОРУС, 2019.
8. *Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
9. *Alimov R., Vahobov A. Milliy iqtisodiyot.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.